

“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyati tayyor mahsulotlarni hisobga olish va sotishni, RFID texnologiyasi asosida markirovkalash orqali, avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etishga tanlov e’lon qiladi.

// 20 July 2022 yil

[https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/tender/dkz\\_tender](https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/tender/dkz_tender)



### **1. Tanlov mavzusi:**

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ korxonasida tayyor mahsulotlarni markirovkalash bo'yicha avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etish.

### **2. Ishlar/xizmatlarning mazmuni:**

Axborot tizimini ishlab chiqish, amalga oshirish, takomillashtirish va kafolatli qo'llab-quvvatlash. Axborot tizimi texnik shartlarning talablariga javob berishi kerak.

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJning barcha korxonalarida tayyor mahsulotlarni markirovkalash, mahsulotlarni jo'natish va tayyor mahsulotlar harakati, omborlar, tayyor mahsulotlarni savdosi, korporativ hisoboti va ma'lumotlarni umumlashtirishni boshqarish uchun modullarining apparat va dasturiy qismlarini joriy etish zarur.

### **3. Tanlov takliflarini yuborish tartibi to'g'risida ma'lumot:**

Takliflar birja platformalarida <https://etender.uzex.uz/lot/124038> manzili orqali qabul qilinadi.

Texnik takliflarni 28.07.2022 yil sanasidan 08.08.2022 yil sanasigacha qabul qilinadi.

Manzil: "DEHQONOBOD KALIY ZAVODI" AJ, 180405 O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani

Telefon: +998-75-612-50-05

### **4. Kompaniyaga qo'yilgan talablar:**

- Tashkilot yuqorida ko'rsatilgan xizmatlarni amalga oshirish uchun barcha zarur litsenziyalar va sertifikatlarga ega bo'lish;
- Kamida 3 ta mijozlardan ijobiy tavsiyanomalar taqdim etish;
- Kamida 5 yil ushbu xizmatlar bozorida ish tajribasiga ega bo'lish;
- Shu kabi loyihalar va ularning tatbiq etilganligi haqida ma'lumot berish;
- Yuridik va buxgalteriya hujjatlarini berish va olish huquqiga ega bo'lgan Toshkent shahridagi ofisning mavjudligi;
- Bankrotlik va sud jarayonlari bosqichida emasligi.
- Taklif etilgan funksional va texnik yechimlarning TV talablariga muvofiqligi va ishlab chiqish darajasi, maqsad, erishish uchun qo'llanilgan uslubning asoslilikligi.

### **5. Kafolat talablari:**

- Xizmatlarni o'z vaqtida to'g'ri bajarish kafolati;
- Ish qabul qilinganidan so'ng kamida 12 oy davomida xizmat ko'rsatish kafolati.

### **6. Eng yaxshi taklifni aniqlashda buyurtmachi tomonidan foydalaniladigan mezonlar:**

- Funksional imkoniyatlar;
- Sifat;
- Qiymati;
- Xizmat ko'rsatish muddatlari;
- Xizmat ko'rsatish kafolati.